

“Uzbekistan Airways” AJ parvoz o’quv muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilishini ma’lum qiladi

2022 25 Noyabr

Nomzodlarga qo’yiladigan talablar:

- O’zbekiston Respublikasi fuqaroligi;
- 21 yoshdan 35 yoshgacha.

Eslatma: Hujjatlarni topshirish kunida 21 yoshga to’Imagan yoki 36 yoshga to’Igan shaxslar tanlov saralashida ishtirok etishlariga yo’l qo’yilmaydi;

- fuqaro aviatsiyasi uchuvchisining tugallangan aviatsiya ta’limi;

Eslatma: O’zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan ma’lumot mavjud bo’lgan taqdirda, hujjatlarni topshirish vaqtida xorijiy ta’lim muassasasini tamomlanganligi to’g’risidagi diplom O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan belgilangan hujjatlari talablariga muvofiq nostrifikatsiyalangan bo’lishi kerak;

- ariza berish vaqtida FA parvoz o’quv yurti tamomlanganligi 3 (uch) yildan ortiq bo’Imagan vaqt davri;
- FA parvoz o’quv yurtida 120 uchish soatidan kam bo’Imagan;
- ta’lim dasturini o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan hajmda davlat tili, rus va ingliz tillarini bilish;
- ICAO 4 shkalasi va undan yuqori bo’lgan ingliz tili darajasi;
- erkak nomzodlar uchun harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bilan O’zbekiston Respublikasi harbiy guvohnomasining mavjudligi;

- IR'ni tasdiqlovchi hujjat;
- amaldagi tibbiy guvohnoma (amal qilish muddati kamida 6 oy)

Muhim! Saralash rus tilida o'tkaziladi!

Hujjatlarni qabul qilish **2022-yil 19-dekabrgacha** amalga oshiriladi.

Rejalashtirilgan tanlov sanasi Toshkent shahrida **2022-yilning 21-dekabr** kunidan boshlab bo'lib o'tadi.

Hujjatlar quyidagi manzil bo'yicha qabul qilinadi: Toshkent sh., Sergeli tumani, Parvoz xizmati departamenti, Uchuvchilar majmuasi binosi, 313-xona – Tursunova Nargiza Shuxratovna.